

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ENERGETIKA VAZIRLIGI TO'G'RISIDAGI NIZOMNI  
TASDIQLASH HAQIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 1-fevraldag'i PQ-4142-son qarorini bajarish yuzasidan, shuningdek, energetika tarmog'ini jadal rivojlantirish va boshqaruvning samarali tizimini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi to'g'risidagi nizom **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ular tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Energetika vaziri A.S. Sultanov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2019-yil 9-fevral,  
108-son

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-fevraldag'i 108-son qaroriga  
**ILOVA**

**O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi to'g'risida  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining (keyingi o'rinnarda Vazirlik deb ataladi) asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligini, faoliyati va hisobotini tashkil etish tartibini, shuningdek, funksional vazifalarini va uning rahbarlari javobgarligini belgilaydi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

2. Vazirlik:

energetika sohasida davlat boshqaruvi organi hisoblanadi hamda o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi;

iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirishni ta'minlash, barcha toifadagi iste'molchilarda energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha vakolatli organ hisoblanadi;

iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish sohasidagi loyihalarni muvofiqlashtirish va boshqarish, shuningdek, ularni amalga oshirish davrida monitoring va hisobotlarni yuritish uchun mas'ul bo'lgan ijro etuvchi organ sifatida ishtirok etadi;

Energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha Respublika komissiyasining ishchi organi hisoblanadi;

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini bo'yicha xalqaro agentlikda (IRENA) O'zbekiston Respublikasining milliy muvofiqlashtiruvchi organi hisoblanadi.

*(2-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)*

3. Vazirlik o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasiga** va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek, ushbu Nizomga amal qiladi.

4. Vazirlik o‘z faoliyatini davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Vazirlikning o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

6. Vazirlik yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, budget va boshqa bank hisob raqamlariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga, shuningdek, o‘z faoliyatini bajarish uchun zarur bo‘lgan, Vazirlikning nomi yozilgan va O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan blankalarga ega bo‘ladi.

7. Vazirlikning rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to‘liq — O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi;

qisqachasi — Energetika vazirligi;

b) ingliz tilida:

to‘liq — Ministry of energy of the Republic of Uzbekistan;

qisqachasi — Ministry of energy;

v) rus tilida:

to‘liq — Ministerstvo energetiki Respublikи Uzbekistan;

qisqachasi — Ministerstvo energetiki, Minenergo.

8. Vazirlikning joylashgan joyi (pochta manzili): Toshkent shahri, Istiqbol ko‘chasi, 21-uy.

## **2-bob. Vazirlikning tuzilmasi**

9. Vazirlik tizimiga quyidagilar kiradi:

markaziy apparat;

Neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi;

Elektr energetikada nazorat inspeksiyasi;

Atom energetikasini rivojlantirish agentligi;

Mahsulotni taqsimlash to‘g‘risidagi kelishuvlarni amalgaga oshirish notijorat tashkiloti;

Vazirlikka bo‘ysunuvchi boshqa tashkilotlar.

## **3-bob. Vazirlikning vazifa va funksiyalari**

10. Quyidagilar Vazirlikning asosiy vazifalari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasining energetika xavfsizligini ta‘minlashga, iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakat aholisini yoqilg‘i-energetika resurslari bilan barqaror ta‘minlashga, tiklanadigan energiya manbalarini keng taraqqiy ettirish va rivojlantirishga qaratilgan **yoqilg‘i-energetika sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalgaga oshirish;**

elektr va issiqlik energiyasi, ko‘mirni ishlab chiqarish, tashish, taqsimlash va iste’mol qilish, shuningdek, neft, gaz va ularni qayta ishslash mahsulotlarini qazib chiqarish, qayta ishslash, tashish, taqsimlash, sotish va foydalanishning davlat tomonidan tartibga solinishini amalgaga oshirish;

respublikada energetika sohasini **yagona normativ-huquqiy va texnikaviy tartibga solish; yoqilg‘i-energetika kompleksini strategik rejalashtirish va rivojlantirishning muvozanatlangan tizimini yaratish va rivojlantirish**, energiya resurslari ishlab chiqarishni ko‘paytirish va diversifikatsiyalash, ishlab chiqarishning o‘zaro bog‘liq qisqa, o‘rta va uzoq muddatli proqnozlarini, barcha turdagи energiya resurslarini yetkazib berish va iste’mol qilish, shuningdek, energetika tarmog‘ini kompleks rivojlantirishning maqsadli dasturlarni ishlab chiqish;

davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, energiya resurslari bozorida qulay raqobat va ishchanlik muhiti shakllanishini rag‘batlantiruvchi tarif siyosatini takomillashtirish hisobiga **yoqilg‘i-energetika tarmog‘ida investitsion jozibadorlikni oshirish;**

**yoqilg‘i-energetika sohasida investitsion loyihibar amalga oshirilishini muvofiqlashtirish**, energiya resurslarini qazib chiqarish va ishlab chiqarish jarayonlariga xususiy kapitalni faol jalb qilish, xalqaro moliya institutlari, donor mamlakatlar, kompaniyalar, banklar va boshqa tuzilmalar bilan hamkorlikni yo‘lga quyish;

energetika sohasida zamonaviy korporativ boshqaruvni, ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini, boshqaruvning samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytirish uchun hisob va nazoratni, energetika tarmog‘i tashkilotlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining shaffofligini **joriy etishga ko‘maklashish**:

**neft-gaz va elektr energetika sohasi tashkilotlarining ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsion texnologiyalar joriy qilinishini rag‘batlantirish**, energiya samaradorligi va energiya resurslarini tejash darajasini oshirish;

energetika sohasida muhandis-texnik va boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha **tizimli ishlarni tashkillashtirish**;

Vazirlikning faoliyati va asosiy yo‘nalishlari bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha mahsulotni taqsimlash to‘g‘risidagi kelishuvlarni amalga oshirish;

energiyaning tiklanadigan manbalaridan foydalanish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

atom energetikasini rivojlantirish va undan foydalanish sohasida yagona davlat siyosatini hamda strategik yo‘nalishlarni ishlab chiqish;

davlat organlari va tashkilotlarida zamonaviy energiya tejaydigan, undan samarali foydalanadigan texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, energiya resurslaridan samarali foydalanish monitoringini yuritish;

atom elektr stansiyalarini qurish bilan birga atomdan tinchlik yo‘lida foydalanishni rivojlantirish, energetika va respublika iste’molchilarining energiya ta’minoti sohasida davlat siyosatini amalga oshirish (tabiiy gaz, suyultirilgan gaz, neft mahsulotlari, ko‘mir, elektr energiyasi va boshqalar).

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning energiya sarfi hajmini pasaytirish sohasida yagona davlat siyosatini olib borish, shuningdek, energiya tejovchi ilg‘or texnologiyalar faol joriy etilishini rag‘batlantirish;

energiya samaradorligini oshirish maqsadida, shu jumladan ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va o‘tkazish orqali investitsiya loyihalari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

davlat organlari va tashkilotlarida, shu jumladan iqtisodiyot tarmoqlari tashkilotlarining ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy energiya samarador va energiya tejovchi texnologiyalar joriy etilishini rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek, energiya resurslarini sarflash samaradorligi monitoringini amalga oshirish;

xalqaro tajribani hisobga olib va zarur bo‘lganda, xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda, energetika auditni sohasidagi mutaxassislar va energetika xizmatlarini yetkazib beruvchilar malakasini oshirish uchun treninglar tashkil etish;

energiya auditorlari faoliyatini tashkil etish tartibini belgilash, yoqilg‘i-energetika resurslari iste’molchilar majburiy energetik tekshiruvdan o‘tkazilishi va tegishli tavsiyalar bajarilishining monitoringini, shuningdek, energiya servis kompaniyalari faoliyati monitoringini amalga oshirish.

(10-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-soni qaroriga asosan o‘n oltinchi — yigirmanchi xatboshilar bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

11. Vazirlik o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

a) O‘zbekiston Respublikasining energetika xavfsizligini ta’minlashga, iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakat aholisini yoqilg‘i-energetika resurslari bilan barqaror ta’minlashga, tiklanadigan energiya manbalarini keng taraqqiy ettirish va rivojlantirishga qaratilgan yoqilg‘i-energetika sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish sohasida:

yoqilg‘i-energetika kompleksini, energiya va gaz ta’minotini rivojlantirish siyosatini ishlab chiqadi va shakllantiradi, ijtimoiy-iqtisodiy omillar va energetik va ekologik xavfsizlik talablarini

hisobga olgan holda energetika maqsadlariga mo‘ljallangan obyektlarni joylashtirish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtiradi;

energetika siyosatining asosiy yo‘nalishlari va ularning amalga oshirilishini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi energetika xavfsizligi darajasini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishini tashkillashtiradi;

yuksak texnologiyalar va boshqaruv usullarini joriy qilib ko‘mir sanoati rivojlanishiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

b) *elektr va issiqlik energiyasi, ko‘mirni ishlab chiqarish, tashish, taqsimlash va iste’mol qilish, shuningdek, neft, gaz va ularni qayta ishlash mahsulotlarini qazib chiqarish, qayta ishlash, tashish, taqsimlash, sotish va foydalanishning davlat tomonidan tartibga solinishini amalga oshirish sohasida:*

neft, gaz, gaz kondensati va ularni qayta ishlash mahsulotlarini qazib chiqarish, qayta ishlash, tashish, sotish va ishlatish, shuningdek, elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish, tashish, taqsimlash yuzasidan davlat nazorati sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

neft mahsulotlari va gazdan foydalanish yuzasidan nazorat sohasida inspeksiya faoliyatiga rahbarlik qiladi, neft, gaz va gaz kondensatini qazib chiqarish, qayta ishlash, tashish, saqlash qurilmalarini montaj qilish (o‘rnatish) va ulardan foydalanishda, shuningdek, elektr energiyasini ishlab chiqarish, qayta ishlash, tashish va iste’mol qilishda, ko‘mirni qazib chiqarishda texnologik talablarga rioya etilishini ta’minlaydi;

Vazirlikka idoraviy bo‘ysunuvchi tashkilotlarning obyektlarida texnologik va ekologik xavfsizlikni, mehnat muhofazasini, favqulodda holatlarning oldini olish va tugatishni ta’minlash bo‘yicha choralar ko‘radi;

energetika sohasidagi mahsulotni taqsimlash to‘g‘risidagi kelishuvlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ishtirok etadi;

v) *respublikada energetika sohasining yagona normativ-huquqiy va texnikaviy tartibga solinishini amalga oshirish sohasida:*

qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining normativ-huquqiy hujjalari loyihalarini, belgilangan faoliyat sohasiga tegishli masalalar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarori talab etiladigan boshqa hujjalarni, shuningdek, Vazirlik faoliyatining ish rejasi va prognoz ko‘rsatkichlarining loyihasini ishlab chiqadi;

yoqilg‘i-energetika kompleksidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjalarning loyihalari tayyorlanishini amalga oshiradi, ushbu hujjalarni qo‘llanish amaliyotini tahlil qiladi;

O‘zbekiston Respublikasi iste’molchilarini energiya va gaz bilan ta’minlash sohasida texnikaviy normativ-huquqiy hujjalarni ishlab chiqilishini va belgilangan tartibda tasdiqlanishini tashkillashtiradi;

idoraviy bo‘ysunuvchi tashkilotlar faoliyatiga taalluqli standartlar, norma va qoidalarning loyihalarini ishlab chiqish bo‘yicha ularning ishini tashkillashtiradi va muvofiqlashtiradi;

respublikaga yoqilg‘i-energetika resurslarini yetkazib berish masalalarini tartibga solish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqadi;

o‘z vakolati doirasida litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qiladi;

o‘rganish natijalari bo‘yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to‘g‘risida yozma ko‘rsatmalar beradi;

qonunchilikda belgilangan tartibda energetika sohasida ayrim faoliyat turlarini amalga oshirishga litsenziyalar beradi;

berilgan litsenziyalarning amal qilishini to‘xtatib turish, to‘xtatish, litsenziyalarni bekor qilish va chaqirib olish bo‘yicha belgilangan tartibda choralar ko‘radi;

litsenziatlar tarafidan litsenziyaviy talablar va shartlarga rioya etilishi to‘g‘risida to‘ldirib boriladigan markazlashtirilgan ma’lumotlar bazasini yaratadi;

energiya resurslari (elektr energiyasi, tabiiy gaz va b.)ni yetkazib berishga namunaviy shartnomalarni kelishadi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlar loyihalarini kelishadi;

(11-bandning "v" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qaroriga asosan o'n uchinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)

g) yoqilg'i-energetika kompleksini strategik rejalashtirish va rivojlantirishning muvozanatlangan tizimini yaratish va rivojlantirish, energiya resurslari ishlab chiqarishni ko'paytirish va diversifikatsiyalash, ishlab chiqarishning o'zaro bog'liq qisqa, o'rta va uzoq muddatli prognozlarini ishlab chiqish, barcha turdag'i energiya resurslarini yetkazib berish va iste'mol qilish, shuningdek, energetika tarmog'ini kompleks rivojlantirishning maqsadli dasturlari sohasida:

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining yoqilg'i-energetika balansini, jumladan, tabiiy va suyultirilgan gaz, neft mahsulotlari, elektr energiyasi va ko'mir, polietilen, polipropilen, oltingugurt va yuqori likvidli mahsulotning boshqa turlari balanslarini ishlab chiqadi;

yoqilg'i-energetika resurslari (suyuq uglevodorodlar, neft mahsulotlari, tabiiy va suyultirilgan gaz, polietilen, polipropilen, elektr energiyasi)ning har yilgi va o'rta muddatli balanslarini ularning ijrosini davriy va sifatli tahvil qilgan holda ishlab chiqadi;

yoqilg'i-energetika kompleksini rivojlantirishning respublikadagi maqsadli va tarmoq dasturlarini ishlab chiqadi, kelishadi va bajarilishi monitoringini amalga oshiradi;

o'z vakolati doirasida respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda ishtirot etadi;

d) davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, energiya resurslari bozorida qulay raqobat va ishchanlik muhiti shakllanishini rag'batlantiruvchi tarif siyosatini takomillashtirish hisobiga yoqilg'i-energetika tarmog'ida investitsion jozibadorlikni oshirish sohasida:

yoqilg'i-energetika sohasida har yillik maqsadli dasturlar va investitsion loyihalarining amalga oshirilishi jadvallarini ishlab chiqish va kelishishda ishtirot etadi;

neft, gaz, elektr energetikasi, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish va ko'mir sanoatida xorijiy kapital ishtirotida investitsion loyihalar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

Vazirlik vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini amalga oshirish bo'yicha choralar ko'radi;

e) yoqilg'i-energetika tarmog'ida investitsion loyihalar amalga oshirilishini muvofiqlashtirish, energiya resurslarini qazib chiqarish va ishlab chiqarish jarayonlariga xususiy kapitalni faol jalb qilish, xalqaro moliya institutlari, donor mamlakatlar, kompaniyalar, banklar va boshqa tuzilmalar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lg'a quyish sohasida:

o'z vakolati doirasida tashkilotlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini muvofiqlashtiradi, Vazirlikning faoliyat sohasiga tegishli xalqaro shartnomalarining loyihalarini tayyorlashda ishtirot etadi, qonunchilikka muvofiq xalqaro energetika tashkilotlarida O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini ifodalaydi;

yoqilg'i-energetika kompleksiga jalb qilingan, jumladan, xorijiy investitsiyalarning hajmini o'rganadi va tahlil qiladi;

iste'molchilarни tabiiy gaz, neft mahsulotlari, elektr energiyasi va ko'mir bilan ta'minlash masalalarida O'zbekiston Respublikasining savdo-iqtisodiy sheriklari hisoblangan xorijiy davlatlarning tegishli organlari va tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

j) energetika sohasida korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini, boshqaruvning samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytirish uchun hisob va nazoratni, energetika tarmog'i tashkilotlari moliya-xo'jalik faoliyatining shaffofligini joriy qilish sohasida:

idoraviy bo'ysunuvchi tashkilotlarga umumiylahabarlikni amalga oshiradi, ularning faoliyatini iqtisodiy tahlil qiladi, ushbu tashkilotlarning rahbarlari bilan ularning samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi;

tarmoqlararo munosabatlarni tubdan takomillashtirishni, tarmoqlarning daromad bazasini har tomonlama kengaytirishni, ularning muvozanatlashuvini ta'minlashni, xalqaro moliyaviy institutlar bilan birgalikda investitsion manbalarning qo'shimcha mablag'larini jalb qilish va jalb qilingan mablag'lardan eng to'liq va samarali foydalanish, idoraviy bo'ysunuvchi iqtisodiyot tarmoqlarini monetizatsiyalash va diversifikatsiyalashni amalga oshiradi;

o'z vakolati doirasida yoqilg'i va energiya narxlari bo'yicha davlat siyosatini shakllantirish bo'yicha takliflarni tayyorlashda ishtirot etadi;

ushbu Nizomga muvofiq Vazirlikning davlat tartibga solishi va boshqaruvi sohasidagi iqtisodiy faoliyat turlarini amalga oshiruvchi idoraviy bo'ysunuvchi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va hisobotiga uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda idoraviy bo'ysunuvchi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va hisobotining xususiyatlarini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi;

Vazirlik va unga idoraviy bo'ysunuvchi tashkilotlarning mulkchiligidagi bo'lган mol-mulkka egalik qilish, uni ishlatish va tasarruf etish huquqlarini amalga oshiradi, O'zbekiston Respublikasiga tegishli bo'lган va Vazirlik boshqaruviga berilgan aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari (ustav fondlaridagi ulushlari)ni boshqaradi hamda ushbu yuridik shaxslarning boshqaruv organlarida davlat vakillarini tayinlaydi va ularning faoliyatini nazorat qiladi;

*z) neft-gaz va elektr energetikasi tarmoqlari tashkilotlarining ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishini rag'batlantirish, energetika samaradorligi va energiya resurslarini tejash darajasini oshirish sohasida:*

energiya resurslarini tejash va energetika samaradorligi sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirot etadi;

ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirish, iste'molchilarining yoqilg'i va energiya ta'minoti samaradorligi va ishonchlilikini oshirishga qaratilgan investitsion dasturlarni ishlab chiqadi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

tashkilotlarning samarali ishlashiga, iste'molchilarining yoqilg'i-energetika resurslari bilan ishonchli ta'minlanishiga qaratilgan ilmiy-texnikaviy siyosat yuritishini ta'minlaydi;

qonunchilikka muvofiq ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, tashkilotlardagi obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va texnikaviy qayta jihozlashning biznes-rejalarini, loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishni tashkillashtiradi;

*i) tiklanadigan, shu jumladan, noan'anaviy energiya manbalarini rivojlantirish va joriy qilish sohasida:*

tiklanadigan, shu jumladan, noan'anaviy energiya manbalarini rivojlantirish siyosatini ishlab chiqadi va shakllantiradi;

O'zbekiston Respublikasida tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqadi;

respublikada tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha strategik vazifalarni belgilaydi;

tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga doir ilg'or xorijiy tajribani o'rganadi;

tiklanadigan energiya manbalari obyektlarini qurish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi;

*k) energetika sohasidagi muhandis-texnik va boshqaruv kadrlarini tayyorlash, ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha tizimli ishlarni tashkillashtirish sohasida:*

Vazirlikning markaziy apparatini va unga bo'ysunuvchi tashkilotlarni yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qaratilgan davlat kadrlar siyosatini qonunchilikka muvofiq olib boradi;

idoraviy bo'ysunuvchi tashkilotlarning xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilish, mehnat unumdoorligini oshirish va unga haq to'lashni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilangan tartibda amalga oshiradi;

qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa funksiyalarni bajaradi.

12. Vazirlik o'ziga yuklangan vazifa va funksiyalarni bevosita hamda Vazirlikning tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlar orqali amalga oshiradi.

#### **4-bob. Vazirlikning huquqlari va javobgarligi**

13. Vazirlik o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o‘z vakolati doirasida, shu jumladan, boshqa davlat organlari bilan birgalikda, barcha davlat organlari va tashkilotlar, jismoniy va yuridik shaxslar uchun majburiy hisoblangan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish;

normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini, shuningdek, Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq boshqa hujjatlarni belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

Vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

energetika sohasidagi buzilishlarni bartaraf etish to‘g‘risida ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan topshiriqlarni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilot va fuqarolarga yuborish;

energetika maqsadlariga mo‘ljallangan obyektlarni qurish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishi lozim bo‘lgan shahar va tumanlarning bosh rejali bo‘yicha xulosalar taqdim etish;

tarmoq ilmiy-texnikaviy va ixtisoslashgan tarmoq ekspert kengashlarini tuzish;

energetika sohasida axborot-tahliliy va ekspert ishlarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda shartnomaiiy asosda ilmiy-tadqiqot, texnologik, loyiha-konstrukturlik tashkilotlarini, olyi ta’lim muassasalarini, shuningdek, olimlar va malakali mutaxassislarini, jumladan xorijdan jalb qilish;

energetika sohasidagi qonunchilik va normativ hujjatlarning talablarini bajarmagani yoki tegishli tarzda bajarmagani uchun davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rahbarlarini belgilangan tartibda javobgarlikka tortish bo‘yicha takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ko‘rib chiqish uchun kiritish;

Vazirlik vakolatiga kiruvchi masalalarni hal qilish uchun zarur axborotni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan belgilangan tartibda so‘rash va olish;

davlat statistika organlaridan Vazirlik vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha zarur statistik axborotni bepul olish;

o‘zining tashkiliy tuzilmasi doirasida tekin foydalanish huquqi bilan Vazirlik va uning idoraviy bo‘ysunuvchi tashkilotlarining davlat mulkini belgilangan tartibda bir bo‘linmadan boshqasiga o‘tkazish;

Vazirlik xodimlari va unga idoraviy bo‘ysunuvchi tashkilotlarni moddiy rag‘batlantirishning tartibi, miqdori va shartlarini ular tomonidan faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bajarilishini hisobga olgan holda belgilash;

Vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga ko‘rib chiqish uchun kiritish;

Vazirlik vakolatiga taalluqli masalalar bo‘yicha idoralararo tusga ega xalqaro shartnomalarni belgilangan tartibda tuzish;

Vazirlik vakolatiga taalluqli masalalar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarini xalqaro darajada belgilangan tartibda ifodalash;

Vazirlik vakolatiga taalluqli masalalar ko‘rib chiqilganda davlat organlari va hay’atlari majlislarida ishtirok etish;

zimmasiga yuklangan vazifalar doirasida bevosita yoki Vazirlikka idoraviy bo‘ysunuvchi tashkilotlar orqali xorijiy sohaviy idoralar, ilmiy va ta’lim muassasalarini bilan hamkorlik qilish;

yoqilg‘i-energetika sohasidagi kadrlar, mutaxassislar malakasini oshirish va stajirovkadan o‘tishlari uchun belgilangan tartibda idoraviy ilmiy va o‘quv kurslari tashkil qilish;

Vazirlik vakolatiga kiritilgan masalalarni hal qilish uchun, shu jumladan, xorijiy ilmiy tashkilotlar, olimlar va mutaxassislarini jalb qilish;

Vazirlik va uning tizimiga kiruvchi tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha choralar ko‘rish.

Vazirlik qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

14. Vazirlik quyidagilar uchun javob beradi:

o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni tegishli tarzda va samarali bajarish, shuningdek, tegishli sohada davlat siyosatini amalga oshirish;

tegishli sohadagi faoliyatning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha parametr va belgilangan indikatorlarga erishilishini so‘zsiz ta’minlash;

joriy etilayotgan innovatsiyalar, g‘oya va texnologiyalarning, shuningdek, Vazirlik tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga va Vazirlar Mahkamasiga kiritiladigan, shuningdek, Vazir tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlarning sifati, yakuniy natijalari va amalga oshirilishining oqibatlari;

tegishli sohani rivojlantirish va hududlarning muammoli masalalarini hal qilish bo‘yicha dastur, tadbirlar rejasи, “yo‘l xaritalari” va boshqa hujjatlarning samarali bajarilishi;

tegishli sohada fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi muhofaza qilinishini ta’minlash.

## **5-bob. Vazirlik rahbarlarining asosiy funksional vazifalari**

15. Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirining (keyingi o‘rinlarda Vazir deb ataladi) asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlari, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilish;

Vazirlik faoliyatiga yakkaboshchilik tamoyillari asosida umumiy rahbarlikni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa qonun hujjatlari bilan Vazirlikka yuklangan vazifa va funksiyalarning bajarilishini tashkillashtirish;

Energetika sohasi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va Vazirlar Mahkamasini qarorlari bilan tasdiqlangan kompleks dastur va kompleks chora-tadbirlar ijrosini tanqidiy va chuqur tahlil qilish;

Vazirlik va uni tarkibiy tuzilmalarining faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkchilariga so‘zsiz erishilishi bo‘yicha ta’sirchan choralarни ishlab chiqish va qabul qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining tarkibiy tuzilmalari va Vazirlar Mahkamasining kotibiylarini, shuningdek, tegishli vazirliklar va idoralar bilan Vazirlik faoliyati sohasiga kiradigan masalalar bo‘yicha o‘zarо hamkorlik qilish, masalalarining Vazirlar Mahkamasи va uning Prezidiumi majlislarida ko‘rib chiqilishida ishtirok etish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosarlari va maslahatchilarining topshiriqlarining o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli ijro etilishini tashkillashtirish;

o‘rinbosarlarining vakolatlarini belgilash, ular o‘rtasida vazifalarni taqsimlash, Vazirlik boshqa mansabdar shaxslarining vakolatlarini belgilash, Vazirlik faoliyatining alohida uchastkalariga rahbarlik qilish borasida o‘rinbosarlar va boshqa mansabdar shaxslarining shaxsiy javobgarlik darajasini belgilash;

Vazirlik faoliyatini rejorashtirishni tashkil qilish, Vazirlik va o‘rinbosarlarining har choraklik ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi yuzasidan nazoratni ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjat va topshiriqlarini samarali va natijali ijro etish, shuningdek, ijro intizomini mustahkamlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchilarini, Vazirlar Mahkamasи va uning komplekslarining, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining, shuningdek, barcha darajadagi hokimliklarning shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida” 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-sон hamda “**Davlat organlari va taskilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida**” 2018-yil 5-oktabrdagi PQ-3962-sон qarorlari, Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash to‘g‘risida” 1999-yil 12-yanvardagi 12-sон **qarori** talablariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari va topshiriqlari ijrosini tashkillashtirish va monitoringining ta’sirchan tizimini yaratish, Vazirlik faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash borasida amaliy chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish, shuningdek,

topshiriqlarning o‘z vaqtida va sifatli ijro qilinishi uchun tarkibiy tuzilmalar va idoraviy bo‘ysunuvchi tashkilotlar rahbarlarining shaxsiy javobgarligini oshirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

Vazirlik tizimida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularning samarali faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, Vazirlikning kadrlar zaxirasini shakllantirish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi nomenklaturasiga kiradigan bo‘sh lavozimlarga taklif etilgan kadrlarning, shuningdek, Vazirlikka ishga qabul qilinadigan boshqa kadrlarning professionalizmi, salohiyati, amaliy tajribasi, ishchanlik va ma’naviy-axloqiy sifatlarining yuksak darajasi kafolatlanganligini ta’minalash;

faoliyat sohasi bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarning sifatli ishlab chiqilishini, ularni O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi, “Qonun loyihibarini tayyorlash va ularni O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi, Qonunlarining talablari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Reglamenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamentiga qat’iy muvofiq holda o‘z vaqtida Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini tashkillashtirish, ularni Vazirlar Mahkamasining apparatida ishlab chiqilishida, Vazirlar Mahkamasi rahbariyati huzurida himoya qilinishida va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasida ko‘rib chiqilishida ishtiroy etish;

Vazirlikka kiritilgan takliflar va taqdim etilgan normativ-huquqiy hujjatlarning loyihibarini to‘liq va har tomonlama ko‘rib chiqilishini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Reglamenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamentida belgilangan muddatlarda kelishilishi (vizalanishi)ni ta’minalash;

O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi, “Qonun loyihibarini tayyorlash va ularni O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi qonunlari va qonunchilikning boshqa hujjatlariga muvofiq Vazirlikning qonun ijodkorligi faoliyatini tashkil qilish;

Vazirlik vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, zarurat bo‘lganda boshqa vazirliklar va idoralar bilan tegishli qo‘shma qarorlar qabul qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mansabdor shaxslarni xorijiy mamlakatlarga chiqishi tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2014-yil 5-martdagi PQ-2142-son va “Xorijiy xizmat safarlarida bo‘lishning samaradorligi va xorijiy delegatsiyalarining O‘zbekiston Respublikasiga safarini tashkillashtirish uchun mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 3-avgustdagi PQ-3170-son qarorlarining talablariga to‘liq muvofiq ravishda Vazirlik rahbarlari va xodimlarining xizmat safarlarini tashkillashtirish, xizmat safarlarining asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, xizmat safarlariga ajratiladigan mablag‘larning maqsadli va oqilona ishlatalishini ta’minalash;

o‘z o‘rinbosarlari va tarkibiy tuzilmalar rahbarlari faoliyatining samaradorligi va natijadorligining tanqidiy tahlilini muntazam yuritish, Vazirlik hay’ati majlislarida ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, muhokama yakunlari bo‘yicha zarur choralar ko‘rish;

Vazirlik xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal qilish, o‘z o‘rinbosarlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini, shu jumladan, kelgusida ularning egallab turgan lavozimlarida qolishining maqsadga muvofiqligi masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflar kiritish, ularning shaxsiy javobgarligini oshirish bo‘yicha tizimli choralarни amalga oshirish;

Vazirlik xodimlari tomonidan Vazirlik xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya etishini ta’minalash yuzasidan nazorat qilish;

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga muvofiq Vazirlik tizimida korrupsiya va boshqa huquqbazarliklarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyoti va qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha choralarini ishlab chiqish va amalga oshirish yo‘li bilan ularning sodir bo‘lishiga olib keladigan sabab va shartlarni aniqlash va tahlil qilish;

Vazirlik va uni tarkibiy tuzilmalari ishini tashkil qilishning zamонавиy shakllari joriy etilishini ta’minalash;

aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro hamkorlikni amalga oshirishda, shu jumladan, "yagona darcha" tamoyilini joriy qilish hamda O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risidagi" **Qonunini** amalga oshirish doirasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishning samaradorligi, sifati va ochiqligini oshirish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarni ko'rib chiqish, aholi bilan ochiq va bevosita muloqotni yo'lga quyish bo'yicha samarali ishlarni tashkillashtirish, O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi **Qonunida** hamda Vazirlikda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash tartibi to'g'risidagi tegishli hujjatlarda belgilangan muddatlar va tartibda muntazam ravishda shaxsiy qabullarni, shu jumladan, joylarga borgan holda jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillari qabulini o'tkazish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkillashtirish, Vazirlik rahbarlarining ularning faoliyatida faol ishtiropini yo'lga qo'yish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasidan kelib tushayotgan jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining o'z vaqtida va to'laqonli ko'rib chiqilishini ta'minlash;

davlat siri toifasiga kiritilgan va maxfiy axborot bilan ishslashda qonunchilik talablariga rioya qilish;

xodimlarning belgilangan cheklangan soni doirasida Vazirlik markaziy apparatining shtatlar jadvalini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining budget mablag'lari hisobidan moliyalashtirilayotgan markaziy apparatning va idoraviy bo'ysunuvchi tashkilotlarning xarajatlari smetasini tasdiqlash;

O'zbekiston Respublikasining energetika xavfsizligi, iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakat aholisini yoqilg'i-energetika resurslari bilan barqaror ta'minlash, tiklanadigan energiya manbalarini keng taraqqiy ettirish va rivojlantirishga qaratilgan yoqilg'i-energetika sohasidagi yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash;

yoqilg'i-energetika sohasidagi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha choralar ko'rish;

energetika sohasida xalqaro va davlatlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, xorijiy investitsiya va grantlarni jalb qilish bo'yicha xalqaro tadbirlarda ishtirop etish.

Vazir qonunchilikka muvofiq boshqa funksional vazifalarga ham ega bo'lishi mumkin.

16. Quyidagilar vazir o'rnbosarlarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlarining, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning talablariga rioya qilish;

Vazir vaqtinchalik bo'lmagan paytda tegishli buyruq asosida uning vazifalarini bajarish;

Vazirlikning o'zi nazorat qiladigan tarkibiy tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat va bevosita rahbarlik qilish, ularning xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash;

Vazirlik faoliyatining o'zi mutasaddilik qiladigan yo'nalishlari bo'yicha Vazirlik faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan tasdiqlangan kompleks dastur va kompleks chora-tadbirlar ijrosini tanqidiy va chuqur tahlil qilish;

mutasaddiligidagi tarkibiy tuzilmalar tomonidan prognoz ko'rsatkichilariga so'zsiz erishilishi bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish, bo'linma rahbarlarining hisobotlarini muntazam tinglab borish va belgilangan ko'rsatkichlarga yetishish uchun ularning shaxsiy javobgarligini oshirish;

mutasaddiligidagi tarkibiy tuzilmalar rahbarlarining har choraklik ish rejalarini tasdiqlash, ularni bajarilishi yuzasidan nazoratni ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjat va topshiriqlarini samarali va natijali ijro etish, shuningdek, ijro intizomini mustahkamlash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchilari, Vazirlar Mahkamasi va uni komplekslarining, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining, shuningdek, barcha darajadagi hokimliklarning shaxsiy javobgarligi to'g'risida" 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son hamda "**Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlash bo'yicha chor-**

**tadbirlar to‘g‘risida”** 2018-yil 5-oktabrdagi PQ-3962-son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash to‘g‘risida” 1999-yil 12-yanvardagi 12-son **qarori** talablariga muvofiq Vazirlikning mutasaddiligidagi tarkibiy tuzilmalarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qaror va topshiriqlari ijrosini ta‘minlash, ijro intizomini mustahkamlash borasida amaliy chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish, shuningdek, topshiriqlarning o‘z vaqtida va sifatli ijro qilinishi uchun tarkibiy tuzilmalar rahbarlarining shaxsiy javobgarligini oshirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

Vazirlik hay’ati qarorlarining, Vazirning buyruq va topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli ijrosini ta‘minlash;

mutasaddiligidagi tarkibiy tuzilmalarda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish bo‘yicha Vazirga takliflar taqdim etish, shuningdek, ularning professionalizmi, salohiyati, amaliy tajribasi, ishchanlik va ma’naviy-axloqiy sifatlarining yuksak darajasi kafolatlanganligini ta‘minlash, professional malakasini oshirish bo‘yicha choralar ko‘rish, nazorati ostidagi tarkibiy tuzilmalarda kadrlar zaxirasini shakllantirish;

tarkibiy tuzilmalar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning sifatli ishlab chiqilishini tashkillashtirish, Vazirning tarkibiy tuzilmalarida tayyorlangan hujjat loyihamini keyinchalik Vazirlik rahbariyati tomonidan ko‘rib chiqilishi, imzolanishi (vizalanishi) uchun ko‘rib chiqish va vizalash, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Regamenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Regamentiga qat’iy muvofiq holda o‘z vaqtida Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta‘minlash, Vazirlik rahbariyatining topshirig‘iga binoan normativ-huquqiy hujjatlarni Vazirlar Mahkamasining apparatida va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasida ishlab chiqilishida ishtirok etish;

Vazirlikka kiritilgan takliflar va taqdim etilgan normativ-huquqiy hujjatlarning loyihamini to‘liq va har tomonlama ko‘rib chiqish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “**Mansabdor shaxslarni xorijiy mamlakatlarga chiqishi tartibini takomillashtirish to‘g‘risida**” 2014-yil 5-martdagi PQ-2142-son va “Xorijiy xizmat safarlarida bo‘lishning samaradorligi va xorijiy delegatsiyalarning O‘zbekiston Respublikasiga safarini tashkillashtirish uchun mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 3-avgustdagi PQ-3170-son qarorlarining talablariga to‘liq muvofiq ravishda xizmat safarlarini bajarish, xizmat safarlarining asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, xizmat safarlariga ajratiladigan mablag‘larning maqsadli va oqilona ishlatalishini ta‘minlash;

mutasaddiligidagi tarkibiy bo‘linmalarning rahbarlari va xodimlari faoliyatining samaradorligi va natijadorligining tanqidiy tahlilini muntazam yuritish, Vazirlik hay’ati majlislarida ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, muhokama yakunlari bo‘yicha zarur choralar ko‘rish;

energetika sohasiga taalluqli masalalar bo‘yicha Vazirlik faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rish, ushbu sohada qonunchilikni takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqish va ularni ko‘rib chiqish uchun Vazirga kiritish;

mutasaddiligidagi tarkibiy bo‘linmalarning rahbarlari va xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish bo‘yicha takliflarni, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimlarida kelgusida qolishining maqsadga muvofiqligi masalalarini ko‘rib chiqish uchun Vazirga kiritish, funksional majburiyatlarini va yuklangan vazifalarni bajarishi yuzasidan ularning shaxsiy javobgarligini oshirish bo‘yicha tizimli choralarни amalga oshirish;

Vazirlik xodimlari tomonidan Vazirlik xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga riosa etilishini ta‘minlashni nazorat qilish;

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi **Qonuni** talablariga muvofiq Vazirlik tizimida korrupsiya va boshqa huquqbazarliklarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyoti va qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha choralarini ishlab chiqish va amalga oshirish yo‘li bilan ularning sodir bo‘lishiga olib keladigan sabab va shartlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

davlat xizmatlari ko‘rsatishning samaradorligi, sifati va ochiqligini oshirish bo‘yicha takliflarni Vazirga kiritish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish, aholi bilan ochiq va bevosita muloqotni yo'lga quyish bo'yicha samarali ishlarni tashkillashtirish, O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi [Qonunida](#) hamda Vazirlikda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi tegishli hujjatlar bilan belgilangan muddatda va tartibda muntazam ravishda shaxsiy qabullarni, jumladan, joylarga borgan holda jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarining qabulini o'tkazish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkillashtirish, ularning faoliyatida faol ishtirot etish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasidan kelib tushayotgan jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining o'z vaqtida va to'laqonli ko'rib chiqilishini ta'minlash;

davlat siri toifasiga kiritilgan va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik talablariga rioya qilish;

yoqilg'i-energetika sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarning, shuningdek, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning ishlab chiqilishini tashkillashtirish;

bozor munosabatlari joriy etilishini nazarda tutadigan xalqaro standartlarga muvofiq yoqilg'i-energetika sohasidagi normativ bazaning tizimli asosda qayta ko'rib chiqilishini tashkillashtirish;

texnik jihatdan tartibga solish sohasida normativ hujjatlarning davlat fondini shakllantirishda ishtirot etish;

energetika sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha takliflar tayyorlash;

uzoq va o'rta muddatga mo'ljallangan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlarini, tarmoq va mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqishda ishtirot etish;

yoqilg'i-energetika sohasida malakali kadrlarni tayyorlash, tarmoq ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonining darajasi va sifatini tubdan oshirishda ko'maklashish, tarmoqdagi mutaxassislarni, jumladan, xorijdagi yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalarida qayta tayyorgarlikdan o'tishini va malakasini oshirishni tashkil etish;

xorijiy davlatlar, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan yoqilg'i-energetika sohasidagi masalalar bo'yicha hamkorlikni amalga oshirish.

17. Quyidagilar Vazirlik markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari rahbarlarining funksional vazifalari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasi](#) va qonunlarining, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning talablariga rioya qilish;

tarkibiy tuzilmalarning faoliyatiga bevosita rahbarlik qilish, ushbu bo'linmalarga yuklangan vazifa va funksiyalarning bajarilishini tashkillashtirish;

o'z vakolatlari doirasida Vazirlikning idoraviy bo'ysunuvchi tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish;

prognoz ko'rsatkichlari bajarilishini tizimli tahlil qilish hamda Vazirning mutasaddilik qiluvchi o'rinbosarlariga tarkibiy tuzilmalar tomonidan ushbu ko'rsatkichlarga so'zsiz erishilishiga qaratilgan qo'shimcha choralarmi qabul qilish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish uchun kiritish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjat va topshiriqlarini samarali va natijali ijro etish, shuningdek, ijro intizomini mustahkamlash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchilari, Vazirlar Mahkamasasi va uning komplekslarining, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining, shuningdek, barcha darajadagi hokimliklarning shaxsiy javobgarligi to'g'risida" 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-sон hamda "[Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida](#)" 2018-yil 5-oktabrdagi PQ-3962-sон qarorlari, Vazirlar Mahkamasining "Ijro intizomini mustahkamlash to'g'risida" 1999-yil 12-yanvardagi 12-sон [qarori](#) talablariga muvofiq Vazirlikning mutasaddiligidagi tarkibiy tuzilmalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qaror va topshiriqlari ijrosini ta'minlash, ijro intizomini mustahkamlash borasida amaliy chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish, shuningdek, topshiriqlarning o'z vaqtida va sifatli ijro qilinishi uchun tarkibiy tuzilmalar rahbarlarining shaxsiy javobgarligini oshirish bo'yicha choralar ko'rish;

Vazirlik hay'ati qarorlari, buyruqlar, Vazir va uning o'rinnbosarlari topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli ijrosini ta'minlash;

tarkibiy bo'linmalarning ish rejalari ishlab chiqilishini, tasdiqlash uchun kiritilishini ta'minlash, ularda ko'rsatilgan vazifalar va tadbirlarning sifatli bajarilishini ta'minlash;

tarkibiy bo'linmalarga yuklangan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish;

tarkibiy bo'linmalar faoliyati masalalari bo'yicha qonunchilikni takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqish va ularni ko'rib chiqish uchun Vazirlik rahbariyatiga kiritish;

tarkibiy tuzilmalarda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bo'yicha Vazirlik rahbariyatiga ko'rib chiqish uchun takliflar taqdim etish, ularning professionalizmi, salohiyati, amaliy tajribasi, ishchanlik va ma'naviy-axloqiy sifatlarining yuksak darajasi kafolatlanganligini ta'minlash, professional malakasini oshirish bo'yicha choralar ko'rish, tarkibiy tuzilmalarda kadrlar zaxirasini shakllantirish;

tarkibiy tuzilmalar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning sifatli ishlab chiqilishini tashkillashtirish, Vazirlikning tarkibiy tuzilmalarida tayyorlangan hujjat loyihamalarini keyinchalik Vazirlik rahbariyati tomonidan ko'rib chiqilishi, imzolanishi (vizalanishi) uchun ko'rib chiqish va vizalash, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Regamenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Regamentiga qat'iy muvofiq holda o'z vaqtida Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta'minlash, Vazirlik rahbariyatining topshirig'iga binoan normativ-huquqiy hujjatlarni Vazirlar Mahkamasining apparatida va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasida ishlab chiqilishida ishtirot etish;

Vazirlikka kiritilgan takliflar va taqdim etilgan normativ-huquqiy hujjatlarning loyihamalarini to'liq va har tomonlama ko'rib chiqish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "[Mansabdar shaxslarni xorijiy mamlakatlarga chiqishi tartibini takomillashtirish to'g'risida](#)" 2014-yil 5-martdagi PQ-2142-sон va "Xorijiy xizmat safarlarida bo'lishning samaradorligi va xorijiy delegatsiyalarning O'zbekiston Respublikasiga safarini tashkillashtirish uchun mansabdar shaxslarning shaxsiy javobgarligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" 2017-yil 3-avgustdagi PQ-3170-sон qarorlarining talablariga to'liq muvofiq ravishda xizmat safarlarini bajarish, xizmat safarlarining asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, xizmat safarlariga ajratiladigan mablag'larning maqsadli va oqilona ishlatalishini ta'minlash;

tarkibiy bo'linmalarning xodimlari faoliyatining samaradorligi va natijadorligining tanqidiy tahlilini muntazam yuritish, Vazirlik hay'ati majlislarida ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, muhokama yakunlari bo'yicha zarur choralar ko'rish;

tarkibiy bo'linmalar xodimlari tomonidan Vazirlik xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya etilishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi [Qonuni](#) talablariga muvofiq tarkibiy bo'linmalarda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyoti va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha choralarini ishlab chiqish va amalga oshirish yo'li bilan ularning sodir bo'lishiga olib keladigan sabab va shartlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

davlat xizmatlari ko'rsatishning samaradorligi, sifati va ochiqligini oshirish bo'yicha takliflarni Vazirlik rahbariyatiga kiritish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish, aholi bilan ochiq va bevosita muloqotni yo'lga quyish, O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi [Qonunida](#) hamda Vazirlikda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash tartibi to'g'risidagi tegishli hujjatlar bilan belgilangan muddatda va tartibda muntazam ravishda shaxsiy qabullarni, jumladan, joylarga borgan holda jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarining qabulini o'tkazish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkillashtirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar

to‘g‘risida” 2016-yil 28-dekabrdagi PF-4904-son **Farmoniga** muvofiq ularning faoliyatida faol ishtirok etish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasidan kelib tushayotgan jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining o‘z vaqtida va to‘laqonli ko‘rib chiqilishini ta’minlash; davlat siri toifasiga kiritilgan va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik talablariga riosa qilinishini ta’minlash;

tarkibiy bo‘linmalar xodimlari faoliyatini tasdiqlangan lavozim vazifalariga muvofiq tashkil etish;

Vazirlik rahbariyatiga tarkibiy bo‘linmalar vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha tahliliy materiallar tayyorlash;

Vazirlik tarkibiy bo‘linmalari faoliyatini o‘rganishni tashkil etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, shuningdek, ularga amaliy yordam ko‘rsatish.

## **6-bob. Vazirlik rahbarlarining javobgarligi**

18. Vazir quydagilar uchun shaxsan javob beradi:

Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi;

ushbu Nizomning **14-bandida** nazarda tutilgan Vazirlik vazifalari bo‘yicha;

ushbu Nizomning **15-bandida** ko‘rsatilgan o‘z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi.

19. Vazir o‘rnbosarlari quydagilar uchun shaxsan javob beradi:

Vazirlikning o‘zlariga biriktirilgan tarkibiy bo‘linmalarida Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi;

mutasaddiligidagi masalalar bo‘yicha ushbu Nizomning **14-bandida** nazarda tutilgan Vazirlik vazifalari bo‘yicha;

ushbu Nizomning **16-bandida** ko‘rsatilgan o‘z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun.

20. Markaziy apparat tarkibiy tuzilmalarining rahbarlari ushbu Nizomning **17-bandida** ko‘rsatilgan o‘z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradilar.

## **7-bob. Vazirlik faoliyatini tashkil etish**

### **§ 1. Vazirlik rahbariyati**

*Oldingi tahrirga qarang.*

21. Vazirlikni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi ma’qullaganidan keyin kiritilgan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan Vazir boshqaradi.

(*21-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-apreldagi 234-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.04.2020-y., 09/20/234/0453-son*)

Vazir o‘z maqomi bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining a’zosi hisoblanadi.

22. Vazirning uch nafar o‘rnbosari, shu jumladan, bir nafar birinchi o‘rnbosari bo‘ladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

23. Vazirning birinchi o‘rnbosari va o‘rnbosarlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

(*23-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-apreldagi 234-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.04.2020-y., 09/20/234/0453-son*)

Vazirning birinchi o‘rnbosari maqomiga ko‘ra Vazirga, Vazir o‘rnbosarlari — Vazirning birinchi o‘rnbosariga tenglashtiriladi.

24. Vazir bo‘lmagan paytda uning vakolatlarini vazifalar taqsimotiga muvofiq o‘rnbosarlaridan biri bajaradi.

25. Neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiysi va Elektr energetikada nazorat inspeksiysi boshliqlari O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar hamda maqomi bo‘yicha Vazirning birinchi o‘rnbosariga tenglashtiriladilar.

Neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi va Elektr energetikada nazorat inspeksiyasi boshliqlarining o‘rnbosarlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Administratsiyasi bilan kelishilgan holda Vazirning taqdimnomasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar hamda maqomi bo‘yicha Vazirning o‘rnbosariga tenglashtiriladilar.

26. Vazirlikning Davlat tomonidan tartibga solish bosh boshqarmasi boshlig‘i o‘z maqomi bo‘yicha Vazir o‘rnbosariga tenglashtiriladi.

27. Neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi va Elektr energetikada nazorat inspeksiyasi xodimlari maqomi va mehnatga haq to‘lash shartlari bo‘yicha Vazirlilik xodimlariga tenglashtiriladi.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

Elektr energetika va neft-gaz tarmog‘ida islohotlarni amalga oshirish uchun Energetika vazirligi qoshida tashkil etilgan Loyiha ofisi xodimlari maqomi va mehnatga haq to‘lash shartlari bo‘yicha Vazirlilik xodimlariga tenglashtiriladi.

*(27-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-soni qaroriga asosan ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-soni)*

## **§ 2. Vazirlikning hay’ati, boshqa maslahat, konsultativ, ekspert organlari**

28. Vazirlikda Vazir (hay’at raisi), uning o‘rnbosarlari (lavozimi bo‘yicha), Neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi va Elektr energetikada nazorat inspeksiyasi boshliqlari, shuningdek, Vazirlik faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini muvofiqlashtiruvchi tarkibiy tuzilmalarining rahbarlaridan iborat tarkibda hay’at tuziladi.

Hay’atning son va shaxsiy tarkibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Vazirning taqdimnomasiga ko‘ra tasdiqlanadi.

29. Hay’atga quyidagi vazifalar yuklanadi:

Vazirlik faoliyatining ushbu Nizomda belgilangan faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini tayyorlash va amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlarida va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlarida belgilanib, o‘ziga yuklangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta’minalash borasida Vazirlik tizimidagi xodim va rahbarlarning shaxsiy javobgarligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘rgan holda tarkibiy tuzilma va idoraviy bo‘ysunuvchi tashkilotlar rahbarlari hisobotlarining muntazam ravishda tinglanishini tashkil qilish;

Vazirlik faoliyat sohasining hududiy va tarmoq dasturlari amalga oshirilishining natijadorligini har chorakda va tizimli ko‘rib chiqish;

Vazirlik faoliyat sohasiga taalluqli dolzarb masalalarning joylarda muhokama etilishini ta’milagan holda hay’atning kengaytirilgan sayyor majlislari o‘tkazilishini tashkillashtirish, shuningdek, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish;

Vazirlikning markaziy apparati va uning tizimiga kiruvchi lavozimlar nomenklaturasini ko‘rib chiqish va tasdiqlash;

Vazirlikning markaziy apparati nomenklaturasiga kiruvchi lavozimlarga kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qaror va topshiriqlarida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta’minalash maqsadida Vazirlik rahbarlari va xodimlarining ijro intizomini mustahkamlash va shaxsiy javobgarligini oshirish.

Kollegiya, shuningdek, Vazirlik vakolatiga kiritilgan boshqa masalalarni ham ko‘rib chiqishga haqli.

30. Hay’at majlisiga davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, boshqa tashkilotlarning rahbarlari o‘zlarining vakolatiga kiramagan masalalar bo‘yicha taklif etilishi mumkin.

31. Hay’at uning majlisida tarkibining yarmidan ko‘pi hozir bo‘lsa vakolatli hisoblanadi. Ko‘rib chiqilayotgan masalalar bo‘yicha qarorlar oddiy ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

32. Hay’at qarorlari Vazirning buyruqlari bilan amalga oshiriladi.

33. Vazir va kollegiya a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda Vazir, yuzaga kelgan kelishmovchiliklar xususida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga va Prezident Administratsiyasiga axborot berib, mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Hay'at a'zolari ham o'z fikrini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga va Prezident Administratsiyasiga bildirishlari mumkin.

34. Hay'atning faoliyati tartibi hay'atda tasdiqlanadigan uning reglamenti bilan belgilanadi.

35. Vazirlikda maslahat, konsultativ, ekspert organlari tashkil etilishi mumkin.

36. Vazirlik huzurida tuziladigan maslahat, konsultativ, ekspert organlarining tarkiblari va ular to'g'risidagi Nizomlar Vazir tomonidan tasdiqlanadi, ularning tarkibi va nizomlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tasdiqlanadigan holatlar bundan mustasno.

## **8-bob. Davlat boshqaruvi organi faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlari**

37. Vazirlikning samaradorligi muntazam baholanishi lozim.

38. Vazirlikning samaradorligi va natijadorligini baholash Vazirlik faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlariga asoslanadi.

39. Faoliyatning samaradorligi va natijadorligini baholash yakunlari bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar ko'rildi:

Vazirlik rahbarlari va xodimlariga nisbatan rag'batlantirish (mukofotlash) yoki intizomiy javobgarlik choralar;

Vazirlik faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va uning faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha.

40. Vazirlik faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash tartibi va uslubi qonunchilik bilan belgilanadi.

## **9-bob. Vazirlikning moliyalashtirilishi va moddiy-texnika ta'minoti, xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish**

41. Vazirlikni moddiy-texnika ta'minoti, xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti, budgetdan tashqari jamg'armalarning mablag'lari va qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

42. Vazirlik xodimlarining ish haqi lavozim maoshi, mukofot, qo'shimcha to'lov, ustama va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa to'lovlardan iborat bo'ladi.

43. Vazirlik xodimlariga, shuningdek, Neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi va Elektr energetikada nazorat inspeksiyasi xodimlariga:

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari hisobidan uzoq muddat ishlagan yillari uchun belgilangan tartibda quyidagi miqdorlarda (lavozim maoshiga belgilangan koeffitsiyentlarda) har choraklik mukofot to'lanadi:

3 yildan 5 yilgacha — 0,15;

5 yildan 10 yilgacha — 0,30;

10 yildan 15 yilgacha — 0,45;

15 yildan 20 yilgacha — 0,60;

20 yildan ortiq — 0,75.

Uzoq muddat ishlagan yillari uchun mukofot olish huquqini beruvchi ish staji Vazirlik tomonidan tasdiqlanadigan tartibga muvofiq hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida (xo'jalik va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha xodimlardan tashqari) avval ishlagan va Vazirlik tizimida lavozimlarga tayinlangan xodimlar uchun ularning Vazirlikdagi ish stajidan qat'iy nazar, lavozim maoshiga nisbatan 0,75 miqdorida har choraklik mukofot to'lanadi.

*(43-bandning ikkinchi va uchinchi xatboshilar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-iyundagi 348-sonli qaroriga asosan ikkinchi — to'qqizinchi xatboshilar bilan almashtirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)*

budget mablag'lari yoki qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan bayram sanalari munosabati bilan shtat jadvaliga ko'ra lavozim maoshlarining 2 baravarigacha miqdorda mukofot to'lanadi;

Vazirlikning ayrim tashabbuskor va yuksak malakali xodimlariga lavozim maoshi (tarif stavkasi)ga belgilangan tartibda shaxsiy ustamalar tayinlanadi.

44. Boshqaruv xodimlari sonining qisqarishi evaziga bo'shaydigan hamda bo'sh o'rinalar hisobiga hosil bo'ladigan mehnatga haq to'lash fondining mablag'lari Vazirlik xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus fondiga yo'naltiriladi.

45. Vazirlik xodimlarini budget mablag'lari hisobidan moddiy rag'batlantirish to'g'risida Nizom Vazirlik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

46. Vazirlikning tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning moddiy-texnika ta'minoti, shuningdek, ularning xodimlari mehnatiga haq to'lash xo'jalik faoliyatidan tushumlar, shuningdek, qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

## **10-bob. Vazirlikning hisobotdorligi**

47. Vazir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi oldida Vazirlik faoliyati to'g'risida muntazam ravishda hisobot beradi.

48. Vazirlar Mahkamasi Vazirlik rahbarlarining ularning zimmasiga yuklangan vazifalarni samarali bajarishi bo'yicha faoliyatini doimiy monitoring qiladi, Vazirlik faoliyatining samaradorligiga xolisona baho beradi.

49. Monitoring va baholash yakunlari bo'yicha Vazirlikning alohida namuna ko'rsatgan rahbarlari, mansabdar shaxslari va xodimlari rag'batlantiriladi yoki yo'l qo'ygan jiddiy kamchiliklari uchun egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan javobgarlikka tortiladilar.

## **11-bob. Yakunlovchi qoida**

50. Vazirlikni qayta tashkil qilish va tugatish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.02.2019-y., 09/19/108/2629-son; 17.04.2020-y., 09/20/234/0453-son; 04.06.2020-y., 09/20/348/0716-son)*